

ARTUR KONAN DOYL ASARLARIDA ANTROPONIMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI ("SHERLOK XOLMS HAQIDA HIKOYALAR" ASARI BO'YICHA)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17988764>

Shoimova Nodira Bobomurod qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Artur Konan Doylning “Sherlok Xolms haqida hikoyalar” turkumidagi antroponimlarning lingvokulturologik xususiyatlari tahlil etiladi. Asardagi personajlar ismlarining madaniy mazmuni, ularning milliy urf-odat va ijtimoiy kontekst bilan bogʻliqligi yoritiladi. Sherlok Xolms, Doktor Uatson, Uilson, Iezekiya Xopkins, Uilyam Morris, Dunkan Ross kabi ism-shariflarning semantik jihatlari va ingliz madaniyatidagi oʻrni oʻrganiladi. Antroponimlar xarakter yaratishdagi badiiy vosita sifatidagi funksiyasi ilmiy asosda izohlanadi. Maqolada personajlar ismlarining tarixiy-etimologik ildizlari ham tahlil qilinadi. Lingvokulturologiya tamoyillari asosida ismlarning milliy mentalitetni aks ettirishi koʻrsatiladi. Tadqiqot natijasida asardagi antroponimlar badiiy va madaniy qatlam sifatida keng talqin etilgan.

Kalit soʻzlar

antroponim, lingvokulturologiya, Sherlok Xolms, Ingliz madaniyati, ism semantikasi, personaj nomi, Mr, Mrs, etimologiya, madaniy kontekst, badiiy funksionalitet, nominativ tizim.

АРТУР КОНАН ДОЙЛ В ТВОРЧЕСТВЕ: ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АНТРОПОНИМОВ (НА МАТЕРИАЛЕ ЦИКЛА «РАССКАЗЫ О ШЕРЛОКЕ ХОЛМСЕ»)

Шоимова Нодира Бобомурод кызы

Магистрант 1-го курса Деновского института предпринимательства и педагогики

Аннотация

В данной статье анализируются лингвокультурологические особенности антропонимов в цикле Артура Конана Дойла «Рассказы о Шерлоке Холмсе». Освещается культурное содержание имён персонажей произведения, их связь с национальными традициями и социальным контекстом. Изучаются

семантические аспекты таких имён, как Шерлок Холмс, доктор Ватсон, Мориарти, а также их место в английской культуре. Антропонимы рассматриваются как художественное средство создания характера. В статье также анализируются историко-этимологические корни имён персонажей. На основе принципов лингвокультурологии показывается отражение национального менталитета в именах. В результате исследования антропонимы произведения интерпретируются как широкий художественный и культурный пласт.

Ключевые слова

антропоним, лингвокультурология, Шерлок Холмс, английская культура, семантика имени, имя персонажа, Mr, Mrs, этимология, культурный контекст, художественная функциональность, номинативная система.

LINGUOCULTURAL FEATURES OF ANTHROPONYMS IN THE WORKS OF ARTHUR CONAN DOYLE (BASED ON THE COLLECTION “STORIES ABOUT SHERLOCK HOLMES”)

Shoimova Nodira Bobomurod qizi

1st-year Master's Student, Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Annotation

This article analyzes the linguocultural characteristics of anthroponyms in Arthur Conan Doyle's "Stories about Sherlock Holmes." The cultural meaning of the characters' names and their connection with national traditions and social context are highlighted. The semantic aspects and cultural role of such names as Sherlock Holmes, Dr. Watson, and Moriarty are examined. Anthroponyms are explained as an artistic tool for character creation. The historical and etymological roots of the characters' names are also analyzed in the article. Based on the principles of linguoculturology, the reflection of national mentality in names is demonstrated. As a result, the anthroponyms in the work are interpreted as a broad artistic and cultural layer.

Keywords

anthroponym, linguoculturology, Sherlock Holmes, English culture, name semantics, character name, Mr, Mrs, etymology, cultural context, artistic functionality, nominative system.

KIRISH

Artur Konan Doyl (1859–1930) – ingliz yozuvchisi, turli yoʻnalishlardagi (detektiv, tarixiy, ilmiy-fantastik, sarguzasht) koʻplab asarlar muallifi. Adabiyot tarixiga u eng avvalo detektiv asarlar muallifi va dunyodagi eng mashhur izquvarlardan biri – Sherlok Xolmsning “otasi” sifatida kirdi. Artur inson sifatida shakllanishida onasining xizmati katta edi. Ona farzandlarida bolaligidan halollik, or-nomus, muhtojlarga yordam qoʻlini choʻzish singari xislatlarni shakllantirishga harakat qildi. “Onam birontamizning qingʻir ish qilganimizni eshitgandan koʻra oʻlimni afzal bilardi”, – deb eslaydi keyinchalik yozuvchi. Kichkinaligidan onasi singdirgan xislatlar bir umrga Konan Doylning hamrohi boʻldi va asarlari qahramonlariga ham koʻchib oʻtdi. Oilasini boqish, uka va singillariga yordam berish va kasal otasini davolash maqsadida Artur tinimsiz mehnat qildi, shifokorlik bilan birga (u tibbiyot oliygohini bitirgan edi) asarlar yozdi. Artur hatto bir necha marta oʻzi oʻylab topgan qahramoni singari izquvarlik bilan shugʻullanib, jinoyatlarni fosh qildi va begunoh insonlarni asossiz jazodan qutqarib qoldi. Kitobxonlar Artur Konan Doylni eng avvalo Sherlok Xolms haqidagi asarlar muallifi sifatida tanishadi. Yozuvchi boshqa janrlarda ham asarlar yaratish maqsadida Sherlok Xolms obrazidan qutulishga harakat qilib, hikoyalaridan birida uni “oʻldiradi”. Keyinchalik esa kitobxonlarning qatʼiy talabi bilan uni “tiriltirishga” va u haqidagi asarlarini davom ettirishga majbur boʻladi.

Detektiv (inglizcha “detective” – “izquvar” soʻzidan) – sirli jinoyatlarning fosh qilinishi haqidagi asar. Bunday asarlarda biron jinoyat sodir qilinadi yoki unga tayyorgarlik koʻriladi. Bosh qahramon – izquvar esa bu jinoyatni fosh qiladi.

Asar davomida oʻquvchiga tushunarsiz yoki ahamiyatsiz tuyulgan barcha detallar, ikir-chikirlar jinoyatni fosh qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.¹

Detektiv asarni oʻqir ekanmiz, “Bu ishni kim qildi?” degan savol asar oxirigacha bizni hayajonda ushlab turadi. Shuning uchun ham ingliz tilida bunday asarlar “whodunit” (yaʼni “Who has done it?” – “Buni kim qildi?”) deb ham ataladi. Artur Konan Doylning “Sherlok Xolms haqida hikoyalar” turkumi ingliz detektiv adabiyotining eng yorqin namunalaridan biri sanaladi. Ushbu turkumdagi antroponimlar – personajlar ismlari – faqat nomlash vazifasinigina emas, balki murakkab madaniy va semantik mazmunni ham oʻzida mujassam etadi. Lingvokulturologik yondashuv bunday nomlarning milliy mentalitet, tarixiy jarayonlar va jamiyat qadriyatlarini aks ettirishini aniqlash imkonini beradi. Sherlok Xolms obrazi oʻzining nomi orqali britancha aniqlik, mantiq va qatʼiyatni ifodalaydi. Doktor Vatsonning ismi esa oddiylik, sadoqat va anʼanaviy britanlik xarakterining ramzi sifatida talqin qilinadi. “Asardagi Uilson, Iezekiya Xopkins, Uilyam Morris, Dunkan Ross kabi nomlar ham muayyan ijtimoiy qatlam va tarixiy konnotatsiyalarga ega”² Antroponimlarning bu kabi funksionalligi Konan

Doylning badiiy mahoratini namoyish etadi. Personaj ismlarining tanlanishi ularning xarakteri, vazifasi va muallif niyatini ochishda muhim vositadir. Shuningdek, ism-shariflar asarda ingliz jamiyati tarixiy-madaniy fonini tiklashga xizmat qiladi:

Mr - erkaklarga nisbatan ishlatiladigan hurmat shakli.

Yoshi nechada bo'lishidan qat'i nazar barcha erkaklar uchun.

Nikoh holati ahamiyatga ega emas.

Rasmiy va norasmiy nutqda ham uchraydi.

Mrs - turmushga chiqqan ayollarga nisbatan qo'llanadi.

faqat **turmushga chiqqan** ayol uchun.

Ko'pincha erining familiyasiga nisbatan ishlatiladi, masalan:

Mrs Brown (erining familiyasi Brown bo'lsa)

Miss - turmushga chiqmagan ayollarga nisbatan ishlatiladi.

Asosan qizlar va yolg'iz ayollar uchun.

Yoshi kichik bo'lgan qizlarga ham ishlatiladi.

Rasmiy maktablarda o'qituvchiga murojaat qilishda ko'p qo'llanadi: *Miss Anna*.

Lingvokulturologik tahlilda antroponimlar nafaqat individual, balki milliy identitetni belgilovchi unsurlar sifatida qaraladi. Shuning uchun mazkur mavzu nafaqat adabiyotshunoslik, balki tilshunoslik nuqtai nafari uchun ham dolzarbdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, antroponimlar til tizimining muhim nominativ unsurlaridan biri hisoblanadi. Lingvokulturologiyada ism-shariflar milliy dunyoqarashning kodlari sifatida o'rganiladi. Konan Doyl ijodiga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlarda personajlar ruhiyati va detektiv janrining xususiyatlari tahlil etilgan, ammo antroponimlarning madaniy-semantik jihatlari ko'p hollarda yetarlicha yoritilmagan. Ingliz antroponimikasiga oid ilmiy adabiyotlar ismlarning genealogiyasi, semantik an'analari va ijtimoiy qatlamlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Ushbu metodologiya asosida Sherlok Xolms nomi "qadimiy soyabonli tepalik" ma'nosiga ega bo'lib, obrazning chuqur mantiqiy fikrlovchi xarakteriga uyg'un keladi. Uotson esa "son of Walter" (Valterning o'g'li) degan genealogik shakldan kelib chiqqan bo'lib, Britaniya an'anaviy familiya tizimiga xosdir. Moriarti familiyasining irlandcha kelib chiqishi asardagi "chet tomondan kirib kelgan xavf" kontsepsiyasini kuchaytiradi. Metodologiya sifatida lingvokulturologik tahlil, semantik-etimologik izlanish, nomlarning badiiy funksiyasini aniqlash, shuningdek, komparativ yondashuv qo'llanildi. Shuningdek, Konan Doylning original matni asosiy manba sifatida tahlil qilindi. Ismlarning

kontekst ichida qo'llanilishi ham alohida o'rganildi. Bu metodlar asardagi antroponimlar tizimini ilmiy asosda ochib berishga imkon berdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Asardagi antroponimlar personajlarning ruhiy, ijtimoiy va madaniy xarakterini belgilashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Sherlok Holmsning familiyasi obrazning o'ziga xoslik, mantiqiy teranlik va jamiyatdan biroz yiroqligini ifodalaydi. Doktor Uatsonning ismi esa unga sadoqatli do'st, an'anaviy ingliz mulohazasiga ega oddiy, lekin samimiy obraz sifatida madaniy belgi beradi. Moriarti familiyasining tanlanishi yovuzlik, xavf va cheklangan ijtimoiy qatlarga mansublikni anglatuvchi konnotatsiyalarga ega. Lestrade kabi nomlar esa fransuzcha kelib chiqishga ega bo'lib, London politsiyasining ko'p millatli tarkibini aks ettiradi. Antroponimlar nafaqat lingvistik birlik, balki badiiy g'oyani shakllantiruvchi semantik markaz sifatida ham ishlaydi. Personaj nomlarining tovush tuzilishi ham psixologik ta'sir kuchini oshiradi. Misol uchun, "Xolms" nomidagi qattiq fonetik tovushlar obrazning qat'iyatini ifodalaydi. Ismlarning tarixiy-etimologik ildizlari esa asarning madaniy kontekstini yoritishga xizmat qiladi. Lingvokulturologik tahlil natijasida personaj ismlarining ingliz jamiyati mentaliteti, ijtimoiy qatlamlari va tarixiy xotirasi bilan bog'liq badiiy qatlamlar aniqlangan. Umuman olganda, Konan Doyl antroponimlardan badiiy, estetik va madaniy vosita sifatida samarali foydalangan. Bu esa asar mazmunini yanada boyitadi va uni chuqur anglash imkonini beradi.

XULOSA

Artur Konan Doyl asarlarida antroponimlar personajlarning asosiy xarakter belgilarini aniq ifodalovchi muhim lingvokulturologik birliklardir. Sherlok Xolms turkumidagi nomlarning semantik qatlamlari obrazlarning ruhiy va ijtimoiy tabiatini ochib beradi. Antroponimlar ingliz jamiyatining tarixiy-madaniy fonini aks ettiruvchi kodlar sifatida badiiy matnning mazmuniga chuqurlik bag'ishlaydi. Ismlar tanlanishining o'zi personajning vazifasi va dramatik roli bilan uzviy bog'liqdir. Lingvokulturologik yondashuv ushbu nomlarning madaniy mohiyatini to'g'ri talqin qilish imkonini beradi. Konan Doylning antroponimik tizimi badiiy mahoratning o'ziga xos elementi sifatida baholanadi. Shuningdek, antroponimlar orqali muallifning g'oyaviy pozitsiyasi ham ifodalanadi. Xarakterlarning ism-shariflari ularning qiyofasini yaratishda kuchli semantik vosita vazifasini bajaradi. Umuman olganda, asardagi antroponimlar til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini yaqqol ko'rsatadi. Bu jihatlar Konan Doyl ijodining lingvokulturologik asoslarini yanada chuqurroq tadqiq etishga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Artur Konan Doyl Sherlok Xolms haqida hikoyalar Toshkent: Yulduzcha, 1989
2. 6-sinf “Adabiyot” darsligi , Toshkent, 2022
3. Safarov, Sh. Pragmatika va tilshunoslikning dolzarb masalalari. – Toshkent: Fan, 2018.
4. Yo’ldoshev, M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Universitet, 2017.
5. Usmonova, D. Antroponimika va uning lingvistik asoslari. – Toshkent: Tafakkur, 2020.
6. Jo’rayev, A. Badiiy matnda ism-shariflarning semantik talqini. – Samarqand: SamDU nashri, 2019.
7. Karimov, B. Ingliz tilida atoqli otlar tizimi va ularning tarjimasi. – Toshkent: TDPU, 2021.

Chet el adabiyotlari:

7. Doyle, A. C. The Adventures of Sherlock Holmes. – London: George Newnes, 1892.
8. Crystal, D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge University Press, 2019.
9. Nuessel, F. The Study of Names: A Guide to the Principles and Topics. – Greenwood Press, 1992.